



ALISHER NAVOIY - SO'Z MULKINING SULTONI

Oromova Dildora Xayrulla qizi

Qarshi davlat universitetining Pedagogika

fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA . Ushbu maqolani o'qishda siz Alisher Navoiyning hayot yo'li, uning san'ati, ijodi. Uning ijodidagi eng mashhur asarlari tahlili, ularning mazmunlari hamda qanday o'ringa egaligi haqida bilib olasiz. Shu bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tadi.

KALIT SO'ZLAR : *ijod, asar, janr, doston, she'r, mutafakkir, olim*

KIRISH. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning o'rni katta va beqiyosdir. Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki mutafakkir, olim sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Hammamizga ma'lumki, Alisher Navoiy bobomizni bilmagan odam yo'q bo'lsa kerak, hattoki barcha adabiyot darsliklarida ham ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning ijodi faqat badiiy qiymat bilan cheklanib qolmay, tilshunoslikka ham e'tibor bergan.

ASOSIY QISM. Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher bobomiz, 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Navoiy bobomiz yoshlik chog'laridanoq adabiyotga qiziqqan. Bolaligidayoq Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini yod olgan. Shoir hayot yo'lida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan. O'zbek olimlari Ozod Sharofiddinov, V. Mahmud, Oybek, Yahyo G'ulomov, Izzat Sulton va boshqalar Navoiyning hayot yo'li haqida asarlar yaratishgan. Qiyinchilik ko'p ko'rganining asosiy sababi, 1469-yilda temuriylar o'rtasida ichki nizolar ko'payib ketadi va Xurosonga qarab yo'l oladi. Alisher Navoiyning ijodi va uning eng mashhur asarlariga keladigan bo'lsak, shoir turli janr va yo'nalishlarda ijod qilgan. Navoiy 2 tilda ijod qilgan, turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda "Foniy" taxalluslarini qo'llagan. O'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan, "Xazoyin ul-maoniy" devoniga bag'ishlangan. Bu asar 4 ta qismdan iborat: 1) "G'aroyib us-sig'ar", 2) "Navodir ush-



shabob", 3)"Badoye ul-vasat", 4)"Favoyid ul-kibar" dagan nomlar berilgan. Asar tahliliga keladigan bo'lsak, bu asarda inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq. Bu asardagi she'rlar esa Alisher Navoiy tomonidan yozilgan bo'lib, butun umri davomida turli xil sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozilgan. Keyingi eng mashhur asarlarida biri, bu "Xamsa"dir." "Xamsa"ning har bir dostoni yozilishini kunning ma'lum vaqtlarida o'qiladigan sahar, peshin, asr, shim va xufton nomozlariga o'xshatadi. Bu asar 1483-1485 yillar oralig'ida yozilgan. Navoiyning "Xamsa" asari 5 ta qismdan iborat bo'lib, bular "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sabai sayyor", "Saddi Iskandariy"dan iborat bo'lib bo'lib, 25620 baytga yaqin she'rdan tashkil topgan." Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" dostonlarida Alisher Navoiy o'zining so'fiylik qarashlarini ifodalagan. "Layli va Majnun" da esa bular o'rtasidagi sevgi, qolgan ikki dostonda esa hukmdorlar haqida ma'lumotlar berilgan. "Xamsa" dostonining tahlili shulardan iborat. Alisher Navoiyning "Muhokamat al-lug'atayn"(1499), "Lison ut-tayr"(1499),"Xazoyin ul-maoniy" (1498),"Tarixi anbiyo va hukamo" (1485),"Majolis un nafois" (1491-1492 : 1498-1499),"Mahbub ul-qulub"(1500) asarlari bor. Jomiy "Bahoriston" asarida shogirdi Navoiy haqida jumladan shunday deydi:"turkiy tilda hech kim Navoiydek ko'p va xo'p she'r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi". Armeniy Vamberi Navoiy haqida:"hammaga ma'lum va mashhur buyuk o'zbek shoiri" deya e'tirof etgan. "Xamsa" dostonining mazmuni shundan iboratki, unda inson hayoti, sevgi, axloq va jamiyat masalalari yoritilgan. "Xazoyin ul-maoniy" da esa ishq, vafodorlik, sadoqat, inson ruhiyati yoritiladi. "Mahbub ul-qulub" asarining asosiy mazmuni pand-nasihatlarga boyligidir. Alisher Navoiy asarlarining hayotimizdagi o'rni juda ko'pdir. Masalan: insonni komillikka yetaklovchi, chuqur ma'noli va ibratli gaplar, asarlar bo'lib, ularning mazmuni sevgi, axloq, adolat va hayot falsafasiga aylanadi.

Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 585 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz va xorijda turli xil forumlar, anjumanlar bo'lib o'tdi. Mana shu anjumanga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasining mas'ul xodimlari, Yozuvchilar uyushmasi a'zolari tashrif buyurdi.



Alisher Navoiy faqat o'zbek madaniyati emas, balki jahon madaniyati adabiyotida ham o'zgacha o'rin tutadi, - deydi Qirg'iz Respublikasining yurtimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Duyshonqul Chostanov. Navoiy bobomiz o'zbek xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirdi. Uning g'oyalari va fikrlari qirg'iz adabiyotiga yaqindir. Yaqinda Qirg'izistonning O'sh shahrida Alisher Navoiy bobomizning haykali qad ko'tariladi. XULOSA. Alisher Navoiy-"so'z mulkining sultoni" degan ulug' nom bejiz berilmagan. Navoiy nafaqat go'zal she'rlar bitgan, balki shu so'zlari orqali inson qalbini tarbiyalash, jamiyatdagi barcha insonlar birlashib, bir-birlariga yaxshilik qilishlarini ham tushuntirib o'tgan. Navoiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yosh avlodni ma'naviy barqarorlikka chorlaydigan bebaho xazina bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tafakkur.net. uz.
2. Jomiyning "Bahoriston" asari.
3. O'zbekiston musulmonlari idorasi. Muslim. uz.
4. Alisher Navoiy "Xamsa" asaridan.
5. Fledu. uz saytidan.